

**QARDOSH QOZOQ, QIRG'IZ, VA O'ZBEK XALQLARI O'RTASIDAGI
ADABIY ALOQALARNING BUGUNGI KUNDAGI O'RNI**

Kumush Zavqiyeva

Shahrisabz tumanidagi 31-maktabning 8-sinf o'quvchisi.

Turkiy xalqlar madaniyat markazining "Жасъ Қыран"

("Yuksak parvoz") ko'krak nishoni sovrindori.

Annotatsiya: Ushbu maqolada qardosh yani qozoq, qirg'iz, va o'zbek xalqlari o'rtasidagi munosabatlar aytib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Yaxshilik, qardoshlik, aloqa, bo'lajak, ma'ruza, she'riyat.

Yaxshi o'ylar bilan uyquga ketibman. Tushimga bir lahza O'ljas og'a kiribdi. She'r o'qiyotganmish "Aylanayin Ona Zamin, Aylanayin Ona yer..." Uning ovozigga jo'r bo'layotganim bir mahal uyg'onib ketdim. Tong oqara boshlabdi. Ha, bugun xalqaro onlayn anjumanda "Abdulla Qodiriy va Muxtor Avezov" haqida so'zlashim kerak. Bo'lajak anjuman uchun ma'ruza tayyorlashni boshladim.

Muxtor Avezov adabiyot bilimdoni edi. Eng qaltis zamonlarda qardosh turkiy xalqlar adabiyotining himoyachisi sifatida maydonga chiqdi. Xususan, qirg'iz xalqining "Manas" eposi himoyasida jasorat ko'rsatganini Chingiz Aytmatov bilan Muxtor Shoxonovlar tomonidan yozilgan "Cho'qqida qolgan ovchining ohi-zori" kitobidan o'qidim. "Manas"ga hujum bo'lganida Muxtor Avezov jonini o'rta qo'yib "Qirg'iz xalqining hayotidan "Manas" yulib olinsa, butun xalqning tilini kesib olgan bo'lamiz" degan genial fikrni aytadi (Chingiz Aytmatov, Muxtor Shoxonov. "Cho'qqida qolgan ovchining ohi-zori". "Sharq" nashriyot-matbaa konserni bosh tahririyati Toshkent. 1998 yil. 62-63-betlar).

"Manas"ni avaylab, saqlab qolishda Muxtor Avezov tarixiy bir xizmat qildi. Shu bilan birga XX asrning 50-yillari o'rtalarida sobiq Ittifoq tepasida o'tirgan millatparvarlar qotili harom qotganidan keyin Abdulla Qodiriy oqlash masalasini ham birinchilardan bo'lib Muxtor Avezov ko'tarib chiqadi.

Bu to'g'rida ulkan o'zbek adabiyoti nazariyotchisi Izzat Sultonga maslahat beradi. Izzat Sultonov yozadi: "Abdulla Qodiriy oqlash masalasini birinchi bo'lib Moskvada Muxtor Avezov ko'targan edi. Bu satrlarning muallifi bilan suhbatda Avezov bu ishni nimadan boshlash haqida ham yaxshi maslahat bergan edi:

"Abdulla Qodiriy "O'tkan kunlar" romanida Rossiyaning Sharqqa nisbatan progressiv rol o'ynaganini birinchi bo'lib ko'rsatdi: Otabekning Shamayga sayohati haqidagi hikoyasida bu fikr yaxshi ifoda etilgan. Qodiriy reabilitasiya uchun harakat boshlang va mana shuni dastak qilib oling".

Bu soʻzlar aytilgan mahalda Rossiyaning Sharqqa nisbatan ijobiy roli har jihatdan boʻrttirib koʻrsatilar edi va shu sababli reabilitasiyaning muvaffaqiyati uchun ishni Qodiriyning xizmatini namoyish etishdan boshlash u vaqtdagi murakkab sharoitda ishning muvaffaqiyatini taʼminlovchi faktor boʻlib qoldi” (Sultonov I. Ulkan adib saboqlari // Jahon adabiyoti. -1997. -№ 2. 166-bet). Oʻziga ustoz bilan adib qismati uchun qaygʻurish, uning nomi va asarlarini oqlash borasida kuyinib yoʻl koʻrsatishdagi Muxtor Avezovning jonbozligi va jasorati unutilmasdir...

Nosir Fozilov Muxtor Avezovning “Kim aybdor?” hikoyasini oʻzbek tiliga mahorat bilan tarjima qildi. Bunday savolli asarlar, millatning maʼnaviy hayotiga tegishli voqeliklarning qalamga olinishi oʻzbek va qozoq jadidlari ijodiga xos edi. Darhaqiqat, Muxtor Avezov ijodining ilk davri qaysidir maʼnoda jadidchilik harakati bilan bogʻliq. Uning ilk hikoyalarida jadidona kayfiyat seziladi.

“Kim aybdor” – bu hikoyada millatning maʼnaviy, madaniy holatini, inson erki masalasini badiiy talqin qiladi adib. Hikoyadagi oddiy qozoq ovuli va undagi anʼanaviy urf-odatlar: mehmondorchilik, qiz uzatish, kelin-kuyov koʻrishuvlari, ota-onaning orzu-niyatlari va farzandlarning yangicha fikrlashga boshlashlari, muhimi, pokiza insonlar qalbidagi duri bebaho boʻlgan mehmon tuygʻu – ishq-muhabbat kechinmalari kabi jarayonlar tasvirlanadi.

Hikoyada berilgan ikki yosh yurak – Aziza bilan Islomning qismati odamni oʻyga toldiradi. Hikoya oʻquvchisi Aziza fojeasi uchun “kim aybdor” degan savolni qoʻyadi. Oʻzicha muhokamalar qiladi. Shunda har qanday odamning orzu-umidlari roʻyobi – bu inson uchun juda ulkan neʼmat ekaniga amin boʻladi. Bunday fojeaviy sahna Abdulla Qodiriyning “Baxtsiz kuyov” dramasida ham mavjud. Garchand asar qahramonlari Solih bilan Rahimaning nikoh toʻylari boʻlib oʻtgan boʻlsa ham, ular saodatli umr kechira olmaydi. Qarzga botishadi. Millat uchun toʻy-hashamlardagi oʻz moddiy boyligini elga koʻz-koʻz qilishdek bir maʼnaviy maraz ikki yoshning hayotiga nuqta qoʻyadi.

Drama voqeligi qarzga botgan kuyov va kelin hayotining fojeaviy sahnasida tuganchiga yetadi. Abdulla Qodiriy “Toʻy” sheʼrida yozadi:

*“Mundayin ishlar sharʼimizda yoʻq,
Kori maʼjus, kori shayton toʻy...
Oʻtsa toʻy birla yozu qishimiz,
Aylagay bizni yergʻa yakson toʻy”.*

Oʻzbek va qozoq millatidagi toʻy bilan bogʻliq bunday holatlar, ortiqcha isrof-garchiliklar jadidlarni bezovta qildi. Bu mavzu hayotga boqib esi kirgan odam uchun bugun ham eskirgan emas, menimcha...

O‘zbek-qozoq adabiy aloqalari, olis va yaqin tarixi va bugun – o‘ylash, o‘rganish, taqqos va tadqiq uchun muhtasham adabiy maydon. Bunda ulkan adabiy shaxslar va ularning bebaho asarlari bor.

Deylik, Oybek, G‘afur G‘ulom bilan Muxtor Avezov va Sobit Muqonovlar, undan keyingi adabiy avlodlar do‘stligi – bularning o‘zi bir olam. Olmaotaga borib tog‘larini tomosha qilgan va ulkan bir qoyaga tikilib qolgan Oybekka Sobit Muqonovning sovg‘asi bag‘oyat g‘aroyib. Bahaybat toshni sovg‘a qiladi. Oybek mamnun bo‘ladi. “Tez orada Oybek Toshkentga qaytib ketadi. Sobit esa keyin o‘sha xarsang yoniga bitta toshtaroshni yollab boradi.

Xarsang toshga hech o‘chmaydigan so‘zlar yoziladi: “Bu silliq toshni men Muso Oybekka sovg‘a qildim. Sobit Muqonuli. 1962 y. 3.VI” (“Cho‘qqida qolgan ovchining ohu zori” kitobidan). Bu avlod ijodkorlari orasidagi og‘a-inilik, do‘st-birodarlik va yaqin o‘tmishdagi sermahsul adabiy hamkorlik bugun qanchalar ma’rifiy zarurat va ma’naviy ehtiyoj ekanini inkor etib bo‘lmaydi.

Qirg‘iz xalqining adabiyoti va madaniyati XX asrga qadar xalq og‘zaki ijodi shaklida rivojlandi. Bizgacha yetib kelgan xalq ashula va qo‘shiqlari, maqol, ertak va dostonlarida qirg‘iz xalqining uzoq asrlar davomidagi ko‘chmanchi-chorqachilik hayoti, ularning o‘z xo‘jayinlariga qarshi olib borgan kurashlari haqqoniy aks ettirilgan. Folklor asarlarida qirg‘iz xalqining mehnatsevarlik, vatanparvarlik va adolatparvarlik g‘oyalarini ifodalovchi juda ko‘p qo‘shiqlar, ertaklar, dostonlari o‘zbek xalqi madaniyati, tarixi bilan chambarchas bog‘liqdir.

Taniqli qirg‘iz adibi Chingiz Aytmatov qirg‘iz adabiyotidagina emas, balki mustaqil davlatlar hamdo‘stligi adabiyotida ham shakl va mazmun novatori sifatida tanildi. Shu sababli uning g‘oyaviy-badiiy yetuk qissalari jahon progressiv yozuvchilari diqqatini ham o‘ziga tortdi. Chunonchi, “Jamila” qissasini fransuz tiliga tarjima qilgan atoqli fransuz yozuvchisi Lui Aragon bu asarni, haqli ravishda, “dunyodagi muhabbat to‘g‘risida yaratilgan qissalarning eng yaxshisi” deb atadi.

Chingiz Aytmatov o‘zbek xalqiga juda ko‘ngli yaqin yozuvchi. U qo‘li qadoq xalqimizning taqdir va qismatiga munosabatdosh, uning baxtiga sarafroz, tashvishlariga sherik, musibatiga qayg‘udosh. O‘zini o‘zbekka o‘zbekning o‘z farzandiday yaqin oladi.

O‘zbekistonda qozoq shoiri va mutafakkiri Abay Qo‘nonboyev ijodiy merosini keng o‘rganilishi ham so‘zlarimizning yorqin isbotidir. Bu haqda O‘zbekiston Prezidentining tegishli qarori qabul qilingan.

Qarorda Abay Qo‘nonboyevning «Saylanma» asarini hamda «O‘zbek va qozoq adabiy aloqalari» nomli adabiy-tahliliy maqolalar to‘plamini nashrga tayyorlash va chop etish, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida «Abay va o‘zbek adabiyoti» nomli doimiy ekspozitsiya tashkil etish.

Har yili shoir tug‘ilgan 10 avgust sanasida Toshkent shahrida o‘rnatilgan Abay Qo‘nonboyev haykali poyiga gul qo‘yish marosimi va mushoira kechalarini o‘tkazish rejalashtirilgan.

Bundan tashqari, o‘quvchi va talaba-yoshlar o‘rtasida «Abay asarlarining bilimdoni» insholar ko‘rik-tanlovi o‘tkaziladi, ommaviy axborot vositalarida Abay Qo‘nonboyev hayoti va ijodi haqida turkum ko‘rsatuv va eshittirishlar, maqolalar berib boriladi, uchrashuvlar, adabiy kechalar tashkil etiladi.

Men bugun yosh yosh ijodkor sifatida qator qardosh xalqlarimizning ijodiy tanlov va xalqaro almanax kitoblarida o‘z ijodiy ishlarim bilan ishtirok etib kelyapman.

Aslida ulug‘lar hayotida ham, ijodida ham, do‘stligi va hamkorligida ham ulkan saboqlar bo‘ladi ekan. Adabiy do‘stligimiz – abadiy bo‘lsin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

O‘zbekiston Respublikasining mehmondo‘stligi pdf.

Maktab darsliklari(ADABIYOT)

<https://.UZ>

Daftar hoshiyasidagi bitiklar

Abdulla Qodiriy she‘rlari